

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Bugungi kunda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi arxitektura sohasining muhim strategik yo'nalishi bo'lib, kelajak avlod uchun milliy qadriyatlarning asrab qolinishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Ismatullaev A. O'zbek xalq me'morchiligi tarixidan. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Hamidov N. Me'morchilikda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi. – Toshkent: Sharq, 2018.
4. Qodirov S. O'zbek arxitekturasi rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: O'zFA, 2015.
5. UNESCO. Architectural Heritage of Uzbekistan. – Paris, 2020.
6. www.unesco.org – O'zbekistonning madaniy merosi bo'yicha hisobotlar.
7. www.ziyouz.com – O'zbek arxitekturasi tarixiga oid maqolalar.
8. www.arxitektura.uz – Zamonaviy arxitektura loyihalari va milliylik haqida ma'lumotlar.

OLIY TA'LIMDA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Usmanov Valiaxmat Fayzillayevich, MChJ «SVP MASKAN»,

Ibragimov Xasan Murtazovich – muhandis,

Xaydarov Baxtiyor To'xtamurodovich-muhandis.

Zargarov Adilbek Kamilovich - Xorazm Ma'mun akademiyasi

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'limda islohotlar samaradorligini oshirish muammolari yoritilgan. Oliy o'quv yurtlariga abituriyentlarni qabul qilish bo'yicha taklif keltirilgan. Oliy ta'limda kredit - modul tizimda o'qitishning salbiy oqibatlari keltirilgan. Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti misolida xorijiy, yani Turkiya Yildiz universiteti dasturi bo'yicha o'qitishni salbiy oqibatlari yoritilgan.

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация

В статье освещаются проблемы повышения эффективности реформ в высшем образовании. Представлено предложение о приеме абитуриентов в высшие учебные заведения. Приведены негативные последствия кредитно-модульной системы обучения в высшем образовании. На примере Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета освещены негативные последствия обучения по программе зарубежного, то есть турецкого университета Йылдыз. Представлены предложения по повышению качества образования и подготовке высококвалифицированных кадров в Узбекистане.

Abstract

The article addresses the problems of increasing the effectiveness of reforms in higher education. A proposal has been submitted regarding the admission of applicants to higher education institutions. The negative consequences of the credit-modular education system in higher education are presented. Using the example of Samarkand State University of Architecture and Construction, the negative consequences of studying under the program of a foreign, that is, Turkish Yildiz University, were highlighted. Proposals for improving the quality of education and training highly qualified personnel in Uzbekistan were presented.

Kalit so'zlar

Oliy ta'lim, abituriyent, kredit-modul tizimi, xorijiy dastur, ta'lim sifati.

Ключевые слова

высшее образование, абитуриент, кредитно-модульная система, зарубежная программа, качество образования.

Keywords

higher education, applicant, credit-module system, foreign program, education quality.

Kirish

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari

o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida bajariladigan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda qabul qilingan PQ-61-sonli «Davlat oliy ta'lim muassalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarorida keltirilgan.

Asosiy qism

Bizning fikrimizcha yuqorida keltirilgan qarorni amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarini boshqarish tizimiga hamda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish Nizomiga ham o'zgartirish kiritilishi lozim.

Birinchi navbatda **«ta'lim xizmatlari bozoridagi talab»** degan jumlani **«malakali kadrlar bozoriga talab»** jumlasiga almashtirish kerak. **Chunki ta'lim va tarbiya ta'lim xizmatlariga kirmaydi.** Ta'lim xizmatlariga mashg'ulotlarni o'tkazish uchun bino va inshootlarni tayyorlash, o'quv va ko'rgazma qurollarini yetkazib berish va h.k. kiradi. **Ta'limni xizmat sohasiga aylantirganimiz bizning eng katta xatomiz hisoblanadi [1].**

Ikkinchidan, Davlat test markazi yopilib, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan imtihonlar bekor qilinishi kerak. Barcha oliy ta'lim muassasalarida o'qish to'lov-kontrakt asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Bu holatda barcha abituriyentlar bir xil sharoitda bo'ladilar. Chunki ta'lim va tarbiya bepul amalga oshirilmaydi. Kimdir bu xarajatlarni qoplashi kerak. Xarajatlar byudjet (davlat buyurtmachi bo'lsa), qorxonalar (korxona buyurtmachi bo'lsa) mablag'laridan yoki talabaning ota-onasi mablag'laridan amalga oshirilishi mumkin.

Shu yerda quyidagi bir savol paydo bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi: maktabni a'lo baholar bilan bitirgan bilimli talabaning o'qishiga sarf qilinadigan mablag'ni ta'minlash uchun ota-onasida yetarli mablag' bo'lmasa, talaba o'qimasligi kerakmi? **YO'Q aslo!** Bunday holatlarda o'quvchilarning o'qishiga Davlat sharoit yaratib berishi zarur, ya'ni o'qish uchun mablag'ni ma'lum tartibda tuzilgan shartnoma asosida davlat o'z zimmasiga olishi mumkin. Talabalar ma'lum bir qismining o'qishi hozir ham byudjetdan moliyalashtirilmoqda.

Talabalar o'qishini Davlat byudjetidan moliyalashtirishni quyidagicha amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim xarajatlari uchun o'quvchilarga foizsiz kredit beradigan Davlat banki, oliy ta'lim muassasasi va talaba o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Bu shartnomada amaldagi qonunchilikka asoslangan holda tomonlarning majburiyatlari va huquqlari aks ettiriladi. Uch tomonlama tuzilgan shartnomada talabaning asosiy majburiyati etib, oliy ta'lim muassasida o'qishni muvaffaqiyatli yakunlagandan so'ng talaba davlat tomonidan yuborilgan joyda **to'rt yil ishlab berishi** belgilanadi. Davlat banki har olti oyda talabaning oliy ta'lim muassasidagi o'zlashtirish natijalariga asoslangan holda oliy ta'lim muassasiga o'qish uchun shartnomada belgilangan pul mablag'ini ko'chirib boradi. Bu jarayon talaba o'qishni bitirguncha davom etadi. Mabodo talaba oliy ta'lim muassasida fanlarni o'zlashtira olmasligi sabab o'qishni davom ettira olmasa, talaba bank tomonidan uning o'qishi uchun oliy ta'lim muassasiga ko'chirilgan pul mablag'larini foizi bilan bankga qaytaradi. Bu holat talabaning va o'quv tashkilotining o'qishga jiddiy munsabatda bo'lishini shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasida o'qishni bitirib, ma'lum bir kasbga ega bo'lgan talaba Davlat tomonidan yuborilgan ish joyida to'rt yil ishlab bergan taqdirda Davlat unga bergan kredit summasidan voz kechadi.

Talaba ma'lum yoki noma'lum sabablarga ko'ra Davlat tomonidan yuborilgan ish joyida shartnomada ko'rsatilgan muddatdan kam bo'lgan muddat ishlab (masalan, bir yil va h.k), keyingi yillar ishni davom ettirish xohishi bo'lmasa, uning o'qishi uchun Davlat tomonidan ajratilgan kredit puli ishlamaydigan yillari (masalan, 3 yil) uchun foizi bilan bankka qaytaradi.

Bunday tartibda abituriyentlarni o'qishga qabul qilishning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat?

Birinchidan, abituriyent o'zi qiziqqan yo'nalish bo'yicha xohlagan shahardagi oliy ta'lim muassasida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, abituriyentni o'qishga qabul jarayonini tashkil qilish uchun (imtihon olish uchun joylarni tayyorlash, tartib o'rnatish uchun Davlat xizmati

xodimlarini jalb qilish, nazoratchilarni jalb qilish va boshqa) davlat tomonidan sarf qilinadigan mablag'lar keskin kamayadi.

Uchinchidan, davlat organlari (ichki ishlar, xavfsizlik xizmati va h.k.) xizmatchilari bevosita o'zlariga yuklangan vazifalar bilan shug'ullanadi.

To'rtinchidan, abituriyentlar ota-onalarining sarson-sargardonchiliklari, ishdan qolishlari bartaraf etiladi. Yo'lga va boshqa narsalarga sarf qilinadigan mablag'lari tejaladi.

Eng asosiysi, O'zbekistonning chekka qishloqlari, shaharchalaridagi muassasalarni (qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va h.k.) kadrlar bilan ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Abituriyent o'qishga qabul qilingandan so'ng uning universitetda ta'lim olishi qanday tashkil etilish kerak, degan savol juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha universitetlarida o'quv jarayoni kredit-modul tizimida tashkil etilgan. Menimcha bu tizim bilan hamma tanish bo'lsa kerak.

Bu tizim «diplomli mutaxassislar»ni tayyorlash uchun emas, malakali kadrlarni tayyorlash uchun Yevropada ishlab chiqilgan. Bu tizimni O'zbekistonda joriy qilishda talabalar asosiy qismining va ota-onalarining mintaliteti umuman e'tiborga olinmagan. Ko'pchilik talabalar ota-onalarining tavsiyasi bilan emas, tazyiqi bilan o'zlari xohlamagan kasblarga yo'naltiriladi.

Talabaning mentalitetidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'quv yuklamasi qancha kam bo'lsa, talaba shuncha xursand. Bu o'rinda fizika-matematika fanlari doktori RFA muxbir a'zosi Aleksey Savvatayevning «Аргументы и факты» gazetasining 2025 yil 35 (2336)-sonida e'lon qilingan «Неученья тьма» (Ilmsizlik zulmati) maqolasini e'tiboringizga havola qilaman. Maqolaning kirish qismida quyidagi so'zlar keltirilgan «Если во главу угла ставить хотелки ребёнка, то школы не будет. А ещё через два поколения не будет вообще ничего - ни промышленности, ни армии, ни страны» ("Agar bolaning xohish-istaklari birinchi o'ringa qo'yilsa, maktab bo'lmaydi. Yana ikki avloddan keyin umuman hech narsa – sanoat ham, armiya ham, mamlakat ham bo'lmaydi."

Bu so'zlar oliy ta'limga ham taalluqli hisoblanadi!

Masalan, mullifga yaqin bo'lgan arxitektura va qurilish sohasida malakali mutaxassis bo'lishi uchun kechagi maktab o'quvchisi qaysi fanlarni o'qishi kerakligini qayerdan biladi? Biz xorijiy tajribalarga ishora qilib, dasturlarga majburiy fanlar bilan birga «talaba tanlovi» deb nomlangan fanlarni kiritdik.

Hozirgi vaqtda Samarqand davlat me'morchilik –qurilish universitetida kadrlarni tayyorlash Turkiyaning Yildiz universiteti dasturi bo'yicha amalga oshirilmoqda. Shu vaqtgacha «Bino va inshootlar qurilishi» deb nomlangan ta'lim yo'nalishi «Qurilish muhandisligi» nomi bilan o'zgartirilgan. Qurilish fakultetida faoliyat ko'rsatgan oltita kafedra birlashtirilib, to'qsonta professor-o'qituvchidan iborat bitta kafedra tashkil qilingan. Bunday kafedrani boshqarishda ta'lim, ilmiy va uslubiy ishlar maqsadga muvofiq bo'lmasligi aniq. Talabalarning bilim olishga befarqligi yaqqol namoyon bo'lib kelmoqda. Agar xorijiy tajriba shunday tadbiq qilinadigan bo'lsa, bilingki ta'lim, ilmiy va uslubiy ishlar «reanimatsiya» holatiga tushib, o'lib qolishi ham hech gap emas.

Hozirgi vaqtda mualliflarga yaqin bo'lgan «Temirbeton va tosh konstruksiyalari» fani Yildiz universiteti dasturi bo'yicha 3 bosqichning 6 semestrda va 4 bosqichning 7 semestrda o'qitilmoqda. Bu fanga 6 semestrda 3 kredit, 7 semestrda 3 kredit ajratilgan. Dasturda laboratoriya darslari yo'q! Kurs loyihalariga soatlar ajratilmagan.

Bundan tashqari o'quv jarayoni hemis tizimi asosida amalga oshirilmoqda.

Bu tizim bo'yicha talaba hamma darslarga qatnashishi majburmi yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi? Darslarga to'liq qatnashmagan talabalarga qanday chora ko'riladi? Chunki darslarga biror soat qatnashmagan talabalar imtihonlarni topshirib, kursdan kursga o'tib yuribdilar.

Darslarga qatnashmagan va fanlarni o'zlashtirmagan talabalarga qaysi fanni o'zlashtirilmagan bo'lsa, o'sha fandan qo'shimcha dars o'tilib, ma'lum bir summa universitet g'aznasiga topshirilgandan keyin, hamma talabalarga baholari qo'yib berilmoqda. Hammadan qizig'i shundaki, qo'shimcha dars o'tishga esa yuqori malakali professor - o'qituvchilar emas, aksincha kecha magistraturani bitirib, o'qituvchilik faoliyatini boshlagan assistentlar jalb qilingan. Imtihon olishda dars

o'tgan professor-o'qituvchi ishtirok etmaydi (sinovlarga bunday yondoshish korrupsiyaning oldini olish bilan asoslangan bo'lsa kerak?). Shuning uchun talabalar darslarga qatnashmaydi, qatnashgan taqdirda ham yo'qlamadan o'tish uchun kelishadi va dars jarayonida bilim olishga befarqliklari sezilib turadi. Biz yomg'irdan qutulamiz deb, qorga duchor bo'lganga o'xshaymiz.

Ta'lim tizimidagi ba'zi bir «mansabdor shaxs» lar talabalarning o'qishga bo'lgan bunday munosabatlarini professor-o'qituvchilarning «zamon talabi»ga javob bermayotganliklari bilan izohlashadi. Ta'lim tizimidagi «mansabdor shaxs» (oliy ta'lim vazirligi mutaxassislari, universitet o'quv ishlari prorektori, nazorat bo'limi boshlig'i va h.q.) biror-bir professor - o'qituvchining darsiga kirib uning ilmiy va pedagogik saviyasini tahlil qilganmi? Yo'q albatta. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti universitet maqomini olgan kundan boshlab bu jiddiy masala ko'tarilgani ham yo'q. Bu masala prorektorlar ishtirokida o'tkazilgan majlisda muallif tomonidan ko'tarilganda, na o'quv ishlari prorektori va na sifat nazorati kuratoridan sado chiqdi.

Talabalarning o'qishga befarqligiga sabab mahalliychilik, talaba va ota-onasining mentaliteti va ta'limni «xizmat sohasi» ga o'tkazilganligi, deb hisoblayman. **Talabaga bilim emas, diplom kerak.**

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun zudlik bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblayman:

1. Abituriyentlarni oliy ta'lim muassalariga qabul qilishni yuqorida keltirilgan tartibda sinovsiz amalga oshirish;
2. Ta'lim va tarbiya masalalarida «**xizmat sohasi**» degan tushunchani lug'atdan chiqarib tashlash;
3. Ta'lim muassasalarini boshqarishni malakali mahalliy kadrlar zimmasiga yuklab, ularga erkinlik berish. **Xorijlik mutaxassislarni faqat dars berish uchun jalb qilish!**
4. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakolatini qisqartirib, unga muvofiqlashtiruvchi tashkilot maqomini berish;

5. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini raqobat asosida tashkil etishni muassasaning rahbari zimmasiga yuklash.

Ta'lim sohasiga joriy qilinayotgan ta'lim standartlari 1991 yilgacha amal qilgan standartlarning ijobiy va salbiy tomonlarini hamda xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda tuzish kerak. Chunki bir holatda qo'llanilayotgan standartdan yangi, boshqa standartga o'tish ma'lum vaqt talab qiladi. Bunga davlat tiliga o'tish bo'yicha qabul qilingan qarorning ijrosi yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekistondagi universitetlarda xorijiy universitetlarning ta'lim standartlarini ko'r-ko'rona joriy qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi muqarrar. Bunga quyida keltirilgan misollar asos bo'la oladi.

Har bir yangi ta'lim standartini amaliyotga joriy etishda birinchi navbatda mahalliy sharoit va aholining mentaliteti e'tiborga olinishi shart.

Sovet ta'lim tizimi haqida Amerika qo'shma shtatlari prezidenti D.Kennedi quyidagi so'zlarni keltirgan: «Советское образование лучшее в мире. СССР выиграл космическую гонку за школьной партой» (Sovet ta'limi dunyoda eng yaxshisidir. SSSR maktab partasida kosmik poygada g'olib chiqdi).

Natija va xulosa

Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash qimmat va mashaqqatli hisoblanadi. Ayniqsa bu texnika yo'nalishida malakali kadrlarni tayyorlashga taaluqli. Jamiyatning yuqori darajada rivojlanishini ilmiy-texnik taraqqiyot belgilashiga biror-bir muttasaddi shaxs e'tiroz bildirmasa kerak.

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti Turkiyaning Yildiz universiteti ta'lim tizimiga (aslida, bu Yevropa ta'lim tizimi hisoblanadi) o'tgandan keyin universitetda ta'lim sifati keskin pasayib ketganligiga quyidagi misollarni (qurilish fakulteti miqyosida) keltirish mumkin:

1. Qurilish fakultetida faoliyat ko'rsatayotgan quyidagi: «Qurilish konstruksiyalari», «Qurilish mexanikasi», «Qurilish materiallari va buyumlari», «Qurilish texnologiyasi va uni tashkil etish», «Asos va poydevorlar», «Binolar arxitekturasi» kafedralar birlashtirib 90 (to'qson) nafar professor - o'qituvchilardan

iborat «Qurilish muhandisligi» kafedrasini tashkil etilgan. Bu kafedrada uslubiy va ilmiy ishlar o'z holiga tashlab qo'yilganligi.

2. Bazi bir fanlardan (masalan, temirbeton konstruksiyalari fanidan) laboratoriya darslari o'quv dasturida rejalashtirilmaganligi va o'tilmasligi.

3. Bazi bir fanlardan hisob-grafik ishlariga soat ajratilmaganligi va bajarilmasligi.

4. Kurs loyihalari va malakaviy bitiruv ishlarini bajarishga rahbarlar uchun o'quv soatlari ajratilmaganligi.

5. Har bir fandan oraliq va yakuniy sinovlar 2 ta savoldan iborat bo'lgan 4 ta bilet bo'yicha (jami 8 savol) o'tkazilishi va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmanov V.F., Ibragimov X.M. Qurilish sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolari va ularni yechish yo'llari. // «Me'morchilik va qurilish muammolari» ilmiy-texnik nashr. 2023 y. №4, 341-344 b.

QURILISH CHIZMACHILIGIDA BAJARILADIGAN AMALIY GRAFIK ISHLARNING MAZMUNI

Xo'janiyozov Shokir Rustamovich UrDU, Arxitektura kafedrasini dotsenti
Yoqubboyeva Sevara Qurbondurdiyevna UrDPI, Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada qurilish chizmachiligiga oid topshiriqlarni bajarish jarayonida nazariy bilimlardan foydalanish hamda amaliy grafik ishlarni to'g'ri bajarish masalalari yoritilgan. Shuningdek, konstruktiv hujjatlarning yagona tizimi standartlari va qurilish chizmalari uchun loyiha hujjatlari talablariga muvofiq chizmalarni bajarish ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается правильное выполнение практических графических работ на основе теоретических знаний по строительному черчению. Показано, как выполнять чертежи в соответствии со стандартами ЕСКД и требованиями проектной документации для строительных чертежей.